

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR, JISMONIY MADANIYAT VA SPORT
KAFEDRASI**

**O‘qituvchi Ostanov Jamolidin Elmurodovichning
“O‘ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITUVCHI DINIY TASHKILOTLAR”
mavzusidagi**

OCHIQ MA‘RUZA DARS ISHLANMASI

Ta‘lim yo‘nalishlari: Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
texnologiyasi
Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

Fan: DINSHUNOSLIK



Samarqand – 2026

Tuzuvchi: J.E.Ostanov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar: A.Xaydarov. – Samarqand davlat pedagogika instituti Milliy g'oya va falsafa kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

L.Jamolov. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrası dotsenti, f.f.n.

OCHIQ DARSNING O‘TKAZILISHIGA OID UMUMIY

MA’LUMOTLAR:

1.Ochiq dars sanasi: 23.04.2026.

2.Ochiq dars o‘tkazilgan ta’lim yo‘nalishlari: Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi, Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

3.Ochiq dars o‘tkazilgan vaqt: 10:30-11:50

4.Ochiq dars o‘tkazilgan joy: 3 bino 378- xona.

5.Ochiq dars turi: Ma’ruza

6.Ochiq darsda ishtirok etgan akademik guruhlar: Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi va Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish ta’lim yo‘nalishlari 1-kurs 103 -105 guruh talabalari

7.Ochiq dars o‘tkazilgan fan: “Dinshunoslik”

8.Ochiq dars mavzusi: “O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar”

9.Ochiq dars maqsadi: Talabalarga “O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar” mavzusi bo‘yicha bilim berish. Ularda O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar to‘g‘risida yangi ma’lumotlar va ko‘nikmalar xosil qilish, mavzu yuzasidan bilim va malakalarni rivojlantirish.

10.Ochiq dars uchun belgilangan ichki ekspertlar: “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasida dotsenti Jamolov L.

11.Ochiq darsda erkin kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi: kafedra o‘qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

12. Ochiq darsda qo‘llanilgan axborot va pedagogik texnologiya: taqdimot, B.B.B., klaster, savol javob, aqliy hujum metodlarni qo‘llash.

13.Ochiq dars natijalari kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan sana:

__-sonli bayonnoma (_____2026).



Mavzu: “O‘ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITUVCHI DINIY TASHKILOTLAR”

O‘quv mashg‘ulotida ta‘lim texnologiyasi modeli

| | |
|---|--|
| Vaqt: 80 daq. | Talabalar soni: 20 |
| O‘quv mashg‘ulotining turi va shakli | Ma‘ruza mashg‘uloti |
| O‘quv mashg‘ulotining rejasi | <ol style="list-style-type: none"> 1. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi. 2. O‘zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. 3. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. |
| O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarning mavzu yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, mustahkamlash, kengaytirish, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar, ularni tashkil etishning huquqiy asoslari va O‘zbekistonda din va davlat munosabatlari haqida tushunchalar berishdan iborat. | |
| Pedagogik vazifalar | O‘quv faoliyati natijalari |
| <ul style="list-style-type: none"> - talabalarning oldingi mashg‘ulotlarda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash; - matn va yangi metodlar asosida ularning fanni chuqur o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish; - talabalarning yozma va og‘zaki nutqi rivojiga ko‘maklashish | <ul style="list-style-type: none"> - talabalar oldingi mashg‘ulotlarda olgan bilim va ko‘nikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida o‘zlarining bilimlar boyligini orttiradilar, mavzu yuzasidan tasavvurlarini kengaytiradilar. - dars davomida o‘zlarining yozma va og‘zaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar. |
| O‘qitish usullari | ko‘rsatma berish, taqdimot, manbalar bilan ishlash, Aqliy hujum, Klaster, “B.B.B” usullari. |
| O‘quv faoliyatini tashkil etish shakli | Ommaviy, yakka tartibli |
| O‘qitish vositalari | O‘quv-uslubiy majmua, darslik, tarqatma materiallar, yozuv taxtasi, kompyuter, proyektor. |
| O‘qitish shart sharoitlari | Guruh bilan ishlashga qulay bo‘lgan jihozlangan xona |
| Qaytar aloqaning usul va vositalari | Taqdimot, og‘zaki so‘rov, tezkor savol-javob, misol va mashqlar, test. |

O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

| Bosqichlar vaqti | Faoliyat mazmuni | Ta’lim oluvchi |
|---|---|--|
| | Ta’lim beruvchi | |
| 1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daqiqa) | Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash. 1.1. Tayanch bilimlarni faollashtiruvchi Aqliy hujum va “Demokratik munozara” usuli bilan dars boshlaydi. 1.2. Yangi mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni va adabiyotlar ro‘yxatini aytadi. O‘quv mashg‘uloti davomida o‘quv ishlarni baholash mezonlarini tanishtiradi. Uyga vazifani so‘rash: 1.3. Talabalar bilimini o‘tilgan mavzu bo‘yicha “B.B.B”, Kichik guruhlarda ishlash usullari bilan tekshiradi. | Javob beradilar Tinglaydilar va javob beradilar Tinglaydilar va yozib oladilar Aniqlashtiradilar va savol beradilar Baholash mezonlari bilan tanishtiradilar Javob beradilar, bajaradilar |
| 2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa) | Yangi mavzuni o‘tish. 2.1. Mavzu bo‘yicha talabalar bilimini faollashtirish uchun suhbat o‘tkazadi. 2.2. Yangi mavzu mazmuni va mohiyatni ochib beradigan slaydlarni ko‘rsatadi va tushuntiradi. 2.3. Mavzuning har bir rejasi bo‘yicha asosiy tushuncha va jihatlariga e’tibor qaratadi. Mavzuni mustahkamlash. 2.4. O‘qituvchi talabalarga o‘quv topshiriqlarini beradi, yo‘riqnomalari bilan tanishtiradi. O‘quv topshiriqlarini tarqatadi, talabalar ishini kuzatadi, javoblarini tinglaydi. | Savollarga javob beradilar, sharhlaydilar Yozadilar Mavzuni tinglaydilar Mavzuni tinglaydilar Mustaqil ishlaydilar Topshiriqni bajaradilar, test savollarini bajaradilar |
| 3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | Dars yakuni 3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiy xulosalar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi. 3.2. Uyga vazifa berish. “Xotira mashqi” usuli orqali topshiriqlar beradi. | Tushunib oladilar, baholar bilan tanishadilar, topshiriqlarni yozib oladilar |

13.MAVZU: O‘ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITUVCHI DINIY TASHKILOTLAR

REJA:

4. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.
5. O‘zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati.
6. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:

Din, Konfessiya, Sekta, Diniy tashkilot, O‘zbekistondagi diniy konfessiyalar, Diniy ta’lim, Mormonlar, Krishnani anglash jamiyati, Iegovo shohidlari, Bahoiylik, Bobiylik.

"Konfessiya" so‘zi (lotincha – "confessio") o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinganda "e’tiqod qilish", degan ma’noni anglatadi. Diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta’limot doirasida shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega e’tiqod va ushbu e’tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi.

Shuni inobatga olgan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, islom dinida bunday holat kuzatilmaydi. Hech qaysi mamlakatda hanafiy mazhabi alohida, boshqa mazhablar alohida konfessiya sifatida ro‘yxatdan o‘tmaydi. Masalan, O‘zbekistonda ham bir necha shia jamoalari bo‘lishiga qaramay, ular o‘zlarini alohida diniy konfessiya hisoblamaydilar. Din jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ijtimoiylashuviga, ularning turmush tarzini tashkil etish va tartibga solishga xizmat qiluvchi me’yoriy omillardan biri bo‘lib kelgan. Dinning bunday roli uning tarixan shakllangan o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. CHunki, din, birinchidan, umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahamjihat yashashiga ko‘maklashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o‘tishlarida kuch bag‘ishlagan; to‘rtinchidan, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishga yordam bergan va shu yo‘l bilan madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Dunyoning konfessional manzarasi. Bugungi kunda dinga bo‘lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o‘ziga xos in’ikosi deyish mumkin.

Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida inson ma'naviyatining uzviy qismi bo'lgan dinning mohiyatini tushunish, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini anglashga bo'lgan e'tiborning kuchayishini keltirib chiqarmoqda. SHu bilan birga, dinga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolar, insonning ularni hal qilish yo'llari haqidagi o'y-izlanishlari, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlagan holda bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topishga intilishi bilan bog'liq ekanini ham alohida qayd etish lozim.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi. Yangi diniy harakatlar deganda odatda XX asrning 70 yillarida Evropa va AQSHda tarqalgan noan'anaviy diniy guruhlar va oqimlar nazarda tutiladi.

Tadqiqotchilar bunga an'anaviy dinlardagi inqiroz davri sabab bo'lganligini ta'kidlaydilar. YaDH liderlari jamiyat kayfiyatidagi o'zgarishlarni, bu "o'tkinchi dunyo"ning nuqsonlarini fosh qilib, o'zlarini "xaloskor", yuksak axloqli "haqiqatgo'y" sifatida ko'rsatdilar. YaDH to'riga ko'proq yoshlar ilindilar. YaDH qat'iy ta'limotga ega bo'lmagan tashkilot bo'lib, uning faoliyati lider roli bilan belgilangan. Liderlar an'anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib borganlar. Diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshirilgan. YaDHLarning ba'zilari dunyoning turli burchaklarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan, biznes bilan shug'ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylandi. YaDHLar meditatsiya amaliyotini keng qo'llaydilar, tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladi. YaDHLarning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir. (Aum Sinrikyo (Tokio metrosi 10/5000 zah.), Quyosh ehromi (fransiya va Kanada va b.). Diniy ta'limotlarni buzib talqin qiluvchi harakatlarga: - protestantlarning "ikkilamchi" birlashmalari – Iogov shohidlari, Oxirgi kun avliyolari Iso Masih cherkovi (mormonlar), Masih serkovi (Boston harakati); - soxta xristian harakatlar – Mun birlashtirish cherkovi, Vissarion oxirgi Ahdi cherkovi, Oq birodarlar; - sayentologik kultlar – Xristian ilmi, Ron Xabbard sayentologiya markazi, Kloneyd, Oq ekologlar harakati; - neo- va kvaziorientalistik maktablar va kultlar – "Tirik axloq"(Agni yogA., Krishnani anglash jamiyati, Transsendental meditatsiya, Aum-Sinrekyo, Saxadja- yoga va b.); - Yangi majusiy tashkilot va kultlar – "Runvira" ukrain milliy e'tiqodi cherkovi, Rossiya jarangli kedrlari, Omsk "qadimgi diniy e'tiqodiga qaytish kulti" va boshqalar kiradi. Sekta so'zi, eng umumiy ma'noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan

yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda har ikkala yo'nalishga mansub bo'lgan ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar. Zamonaviy voqelik diniy-ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, bizga qo'shni bo'lgan davlatlarda "Bogorodichiy sentr", "Serkov ob'edineniya", "Serkov Isusa", "Serkov Novogo Zaveta", "Beloe bratstvo", "Bojestvennyy orden Pervogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Satanizm" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Er yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor. Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar. Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda. Ugandadagi "Oxirat kuni" sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol bo'ladi. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga "belgilagan" ushbu sekta rahbarlari o'z tarafdorlarini mol-mulklarini sotish, tushgan mablag'ni ularga berishga va shu yo'l bilan gunohlardan forig' bo'lishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga "ko'chirilishi" sekta rahbarlariga nisbatan shubha uyg'onishiga olib kelgan. SHundan so'ng rahbarlar Kanungu qishlog'ida 500 dan ortiq o'z tarafdorlarini aldab bir joyga to'plab, ustlaridan yopib binoga o't qo'yib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, tezkor tadbirlarni o'tkazgan politsiya yana to'rt joyda ommaviy qabrlarni topgan. Umuman bu sektaning qurbonlari 1000 ortiq bo'lgani qayd qilingan.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi diniy tashkilotlar. Tarixdan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o'z tasdig'ini topishiga ham bog'liqdir. SHu nuqti nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlari nafaqat qonunan mustahkamlab qo'yilganini, balki amaliyotda ham ushbu Qonundan kelib chiquvchi tamoyillarga qat'iy rioya qilinayotganini hayotiy dalillar ham ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda diniy tashkilotlar hech qanday tazyiqlarsiz, cheklashlarsiz, emin-erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta'kidlash lozim. SHu bilan birga, diniy tashkilotlarning soni o'sganini ham qayd etish zarur. Xususan, 1990 yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo'lgan bo'lsa, 1991 yilda 179 taga (146 islomiy va 33 noislomiy) etdi, 2007 yilning

yanvariga kelib esa, ularning soni 2227 tani (2046 ta islomiy, 181 ta noislomiy) tashkil etdi. Ulardan eng yirigi O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyati. SHuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy sinagogalari, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasida fuqarolar emin-erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mustaqillikkacha bor-yo'g'i ikkita islomiy diniy o'quv yurti (Toshkent islom instituti va «Mir Arab» madrasasi) bo'lgan bo'lsa, o'tgan yillar davomida ularning soni 11 taga etdi. Boshqacha aytganda, Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Buxorodagi «Mir Arab», Toshkentdagi «Ko'kaldosh», Qoraqalpog'istondagi «Beruniy», Namangandagi «Mulla Qirg'iz», Xorazmdagi «Faxriddin ar-Roziy», Andijondagi «Sayyid Muhyiddin Maxdum», Qashqadaryodagi «Xoja Buxoriy», Toshkentdagi «Xadichai Kubro» va Buxorodagi «Jo'ybori Kalon» xotin-qizlar o'rta maxsus islom bilim yurtlari va Imom al-Buxoriy nomidagi hadis ilmi markazidan iborat yaxlit diniy ta'lim tizimi yaratildi. 2000–2001 o'quv yilidan boshlab diniy ta'lim muassasalarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Kasb-hunar ta'lim markazining Davlat ta'limi standartlari bo'limi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ta'lim standartlari va o'quv rejasi asosida o'qitish joriy qilindi. Sodda qilib aytganda, o'quv yurtlarida diniy va dunyoviy ta'limning uzviyligi ta'minlandi. 2000 yildan boshlab Toshkent islom instituti va o'rta maxsus islom bilim yurtlari bitiruvchilarini O'zbekiston musulmonlari idorasi yo'llanmasi bilan rejali ravishda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan masjidlariga ishga taqsimlash va 2001 yil yanvar oyidan boshlab, ilk marta diniy bilim yurtlari talabalariga stipendiya berish joriy qilindi. Yuqoridagi kabi o'zgarishlarni boshqa konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, 1998 yildan Toshkent Pravoslav hamda Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsata boshladi, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi va Evangel-Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlandi. Xulosa qilib aytganda, xalqimizning diniy va ma'naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasini Konstitusiyasi – huquqiy davlatni rivojini barpo etishda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Konstitusiya me'yorlari birlamchi hisoblanadi. Birorta ham qonun yoki boshqa me'yoriy-huquqiy xujjat Konstitusiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas. Konstitusion me'yorlari boshqa qonunlardan yuqori turadi. Chunki davlani barcha joriy qonunlari va boshqa huquqiy xujjatlari

Konstitusiya qabul qilishda ob'ektiv va sub'ektiv, ichki va tashqi omillar birinchi o'rinda turadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 1992 yil 8

dekabrda 12 chaqiriq O'zbekiston Respublika Oliy Kengashini 11-sessiyasida qabul qilindi. Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengashning 11-sessiyasida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan so'zlagan nutqida bunday deb ta'kidlandi: «Hur O'zbekistonimizni tarixida birinchi Kontitutsiyani qabul qilish jumxuriyatimizni yangidan tuzishda haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir, Konstitusiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrardir».

Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha, har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagani holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyatiga ega. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan Vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan Vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda (1991 yil 14 iyunda qabul qilingan, 1998 yil 1 mayda yangi tahriri tasdiqlangan) nazarda tutilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, "hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega" (31-modda).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'yicha, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, diniy munosabatidan qat'i nazar fuqarolarning tengligi ta'minlanadi (4-modda). Ushbu qonunda ta'kidlanishicha, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonun muayyan yoshga yetgan fuqarolarning o'z diniy ehtiyojlarini qondirish uchun diniy tashkilot tuzish, oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish tartibqoidalarini ham belgilab bergan. Ayni vaqtda dindan davlat va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, millatlararo adovat uyg'otishda, vaziyatni barqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi (5-modda).

O'zbekistonda Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhimdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi

masalasi o'z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha, shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi. Mustaqillik tufayli vijdon erkinligi tamoyillarini tiklash va unga og'ishmay amal qilish bu davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. Zaruriyat qonuniy negizga tayanmog'i kerak, qonun esa har doim harakatda, ishda bo'limgo'i darkor. 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi qonunni qabul qildi. Qonun loyihasini tayyorlashda keng jamoatchilik vakillari, xalq deputatlari, olimlar, mutaxassislar, turli millat va din vakillari faol ishtiroq etishdi. Bu qonun o'z ruhi va mazmuni bilan ilgari qonunlardan katta farq qiladi. Qonunning «Umumiy qoidalar» bobida vijdon erkinligining asosiy tamoyillari, vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari, qoidalari va kafolati, fuqarolarning bu sohadagi huquq va burchlari bayon etilgan.

Qonunning 3-moddasida har bir fuqaro dinga munosabatini o'zi mustaqil aniqlashi, u har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi va bu huquq esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanganligi takidlangan. Yangi qonun ota-onalarga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga o'z bolalarini dinga o'z munosabatlariga muvofiq ravishda tarbiyalash huquqini beradi. O'zbekiston fuqarolari dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, respublika qonunlari oldida teng huquqlidirlar. Ularning huquqlarini dinga yoki daxriylikka munosabatlariga qarab cheklab qo'yish yoki imtiyozlar berish, ular o'rtasida nifoq va nafrat qo'zg'otish yoki fuqarolarning tuyg'ularini haqoratlash kabi harakatlar qonun asosida qoralanadi va bu ishda aybdor bo'lgan kishilar qonun oldida javobgardirlar. O'z diniy e'tiqodini sabab qilib qonunda belgilab qo'yilgan burchlarini bajarishdan hech kim bo'yin tovlashi mumkin emas. Yangi qonunda O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko'rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan shug'ullanmaydi, diniy tashkilotlar (masjidlar) diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va diniy tashkilotlar ham davlat (hokimiyat) ishlariga aralashmasligi lozim. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga biror davlat vazifasini yuklamaydi, diniy tashkilotlarning faoliyati qonunlarga zid kelmasa, unga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi, siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashmaydi va ularni mablag' bilan qo'llab quvatlamaydi, davlat qonunlari va huquq – tartibotiga rioya qiladi. Lekin diniy tashkilotlar jamoat ishlarida ishtirok etish huquqlariga egadirlar. Fuqarolar dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'iy nazar, ta'limning xilma-xil turlari va darajalarini egallashlari mumkin. Belgilangan qoidalar asosida davlat organida ro'yxatdan Nizomga asosan o'tish, fuqarolar uchun

diniy tashkilotlar maxsus o'quv yurtlari tashkil etishlari mumkin. Har bir fuqaro o'zlari tanlab olgan tilda yakka o'zi yoki boshqalar bilan birgalikda, shu jumladan uyda va diniy tashkilotlar xuzurida diniy ta'lim olishlari mumkin. Yangi tahrirdagi qonun loyihasi 6 bob va 49 ta moddadan iborat (amaldagisida – 23) va bir qator o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Unda «diniy tarkibiy materiallar», «noqonuniy diniy faoliyat», «diniy tashkilot» va boshqa shu kabi tushunchalarga ta'rif berilgan.

Shuningdek, unda vijdon erkinligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va tamoyillari hamda ushbu sohadagi vakolatli davlat organlarining vakolatlari bayon etilgan. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miryozov «Yangi Konstitutsiyamizning ijobiy jihatlari, yangi tomonlari, avvalgi Konstitutsiyalardan farqlari, avvalambor bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafa g'oyasiga ko'ra yangi xujjatdir. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – inson degan fikrni ilgari surgan va shu asosda «fuqaro- jamiyat-davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy echimini topishga harakat qilingan». Konstitutsiyada hurfiylik vijdon va diniy e'tikod erkinligi masalalariga katta e'tibor berilgan. Unda dinning tarbiyaviy ahamiyatiga yanada ko'proq e'tibor berilishi lozimligi ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda bu Konstitutsiyada vijdon erkinligi ham nazardan chetda qolmagan desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

3. Dinni davlatdan ajratish haqidagi g'oya azaldan hurfiylik va dunyoviy-ratsionalistik tafakkur rivojiga asoslanganini ta'kidlash joiz. Ushbu hayotiy masala hozirgi O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlatlarda ham doimo muhim o'rinni egallab kelgan. Bunda dunyoviylikka moyil siyosiy kuchlarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi mavvqei muntazam ravvishda mustahkamlanib borgani diqqatga sazovordir. Movarounnahrning o'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi tarixida boshqaruvning diniy-teokratik usullariga moyil davlatlarning yo'qligi ham ushbu xulosaning o'rinli ekanini tasdiqlaydi.

Demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan O'zbekistondagi ma'navviy hayotni tashkil etuvchi, uni birlashtirib turuvchi o'zak o'q – diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi.

Xalq tomonidan asrlar osha e'zozlanib kelingan qadriyatlar tizimida diniy qadriyatlar alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston xalqi tomonidan azaldan ardoqlanib kelinayotgan qadriyatlarning aksariyatiga islomiy ruhiyat va sharqona odob-axloq chuqur singib ketgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan *“...agar mendan, nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavvol yashab kelayapti, deb so'rasha, bu – avvalo muqaddas dinimiz hisobidan, deb javob bergan bo'lur edim,”* – deb ta'kidlangani ham ayni shu bilan izohlanadi.

Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir-biriga ta'sirini, ular o'rtasidagi mo'tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak”. Demak, dinlar haqidagi mantiqiy asoslangan bilimlarni

shakllantirish va dunyoviylik tushunchasini chuqurlashtirib borish yoshlarda dinga nisbatan sog'lom munosabatni shakllantirishning ikki qutbi hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri dunyoviylik ekan, uni qanday tushunish lozim, degan savvol tug'iladi. Ingliz tilidagi «*secularity*» hamda rus tilidagi «*sekulyarizatsiya*» va «*svetskost'*» tushunchalari bilan tutash ushbu istilohning qanday talqin etilishining o'ziyoq har qanday mamlakatdagi davvlat va din o'rtasidagi munosabatlarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Sho'ro zamonida chiqarilgan aksariyat lug'atlarda «*svetskost'*» va «*sekulyarizatsiya*» tushunchalari diniylikning aksi bo'lgan ijtimoiy xatti-harakatlar sifatida talqin etiladi. Bu esa, tabiiy ravvishda, dahriylik targ'iboti va dinning hayotiy o'rnini inkor etishga olib kelar edi. Aslida esa, "... *dunyoviylik – bu dahriylik degani emas*. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davvomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar – bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'navviy meros bo'ladimi, axloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi – bularning barchasini rad etadi. Natijada odamzod o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'u va qarashlari, tayanib-suyanib turadigan poydevoridan mahrum bo'lib, «sho'ro dohiylari» aytganidek, ulkan davvlat mashinasining «vintchasi»ga aylanadi. Oxir-oqibatda bunday odam ota-onasini ham, o'z millati, xalqi va Vatanini ham tanimaydigan ayanchli holatga tushib qoladi".

Demak, tom ma'nodagi sog'lom dunyoviylik dinning ijtimoiy mavvqeini inkor etmaydi, balki jamiyat hayotini tashkil etishning dunyoviy ma'rifatga asoslangan tarzini anglatadi. Boshqacha aytganda, dunyoviylik ijtimoiy hayot sohalari diniy aqidaning yakkahokimligidan va uning hal qiluvchi ta'siridan xoli bo'lishni taqozo etadi.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'navviy hayotdagi yangilanish jarayonini, tub o'zgarishlar davvrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi: sobiq sovet tizimining ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Din va dunyoviy davvlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvvalo, dinning davvlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davvlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davvlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi».

Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkam qo'yilgan. Avvvalo diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradi. qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davvlat nazoratidan xolidir.

Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning davvlatdan ajratilgani dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ham ta'kidlash zarur. Bu fuqarolik jamiyatida din o'z mavvqeiga ega bo'lishini anglatadi. Bu ham Konstitutsiyamizning amaldagi ijrosidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosalardan biridir. Aytish joizki, ma'navviy barkamol avvloodni tarbiyalash, bunyodkor milliy qadriyatlarimizni asrab-avvaylash va xalqimizning haqiqiy ma'navviy surati va siyratini belgilovchi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan mehr-oqibat, hamjihatlik, o'zaro yordam, keksalarga hurmat, sharqona odob-axloq, sharmu hayo kabi eng oliy insoniy tuyg'ularning tub mohiyatini anglash va ko'z qorachig'idek e'zozlashda aynan diniy tashkilotlar va din arboblarning roli va o'rni beqiyosligini bugun hech kim inkor etmaydi. Aksincha, bunday bunyodkor faoliyat qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Buning sababi esa, Konstitutsiyamizda ana shunday faoliyat uchun mustahkam huquqiy zamin yaratib berilganidadir.

Dunyoviy davvlat va din munosabatini belgilab beruvchi boshqa bir tamoyilning mazmuni din sohasida kechayotgan o'zgarishlarni xolis va ilmiy o'rganish, shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishda namoyon bo'ladi.

Davvlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davvlat dinni xalq ma'navviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Davvlat va din munosabatlarning yana bir asosiy xususiyati bu dinning siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'navviy-axloqiy jihatni o'z ichiga oladi.

Hech qaysi din o'zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha jihatlarini qamrab olishga da'vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo'lmay qoladi.

E'tirof etish lozimki, har qanday diniy e'tiqod kabi islom ham barcha davvrlarda, shu jumladan, dahriylik keng targ'ib etilgan sho'ro tuzumi zamonida ham, ijtimoiy munosabatlar va ma'navviy-ruhiy hayotga o'z ta'sirini o'tkazib turgan muhim omillardan biri bo'lib qolavvergan. Ijtimoiy munosabatlar va ma'navviy-ruhiy hayotning uyg'unligi esa, har qanday jamiyatning ichki siyosiy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan ekani sir emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, din va siyosat o'rtasidagi muayyan bog'liqlikni inkor etib bo'lmaydi. Buning sababi esa islomning xalqimiz ongu shuuri va mentalitetiga shu qadar singib ketganidadir. Uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi.

Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, islom dini va musulmonchilik degan tushuncha bizning mintaqamiz uchun faqat o'tmish va bugun tajribasigina bo'lib qolmasdan, u kelajak voqeligi hamdir. Islomning jamiyat hayotidagi roli tom

ma'nodagi hurfikrlilik qaror topayotgan mustaqillik davvrida o'zini yanada yaqqolroq namoyon etayotgani ham shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Biroq masalaning ikkinchi jihati ham bor: diniy omilning siyosiylashuvi jamiyat xavvifsizligi va barqarorligi uchun tahdidga aylanib ketishi mumkin. Ushbu holat har qanday dinning sof e'tiqodiy masalalar chegarasidan chiqib, davvlat va jamiyat qurilishi masalalariga aralashishga urinishidan boshlanadi. Mazkur hol musulmon Sharqi mamlakatlari tarixida o'zini takror va takror namoyon etib kelayotgani yaxshi ma'lum. Ayniqsa, bunday holatning vujudga kelish xavvfi u yoki bu jamiyat tarixida keskin o'zgarishlar ro'y bergan davvrlarda kuchayadi.

Mustaqillikning ilk bosqichida misli ko'rilmagan darajada faollashgan diniy guruhlarning siyosiy va hatto, harbiylashgan tashkilotlarni tuzishga qaratilgan amaliy harakatlarini eslash lozim. O'shanda bunday guruhlar O'zbekistonni islomiy davvlat deb e'lon qilishni talab qilish darajasigacha borib etgan edilar. Mafkuravviy markazi Farg'ona vodiysi bo'lgan ushbu harakat o'z davvrida mamlakatimizning boshqa mintaqalarida ham muayyan aks-sado berib, umummilliy xavvifsizlikka jiddiy tahdid tug'dirganini inkor etib bo'lmaydi. Dunyoviy-ma'rifiy davvlat va jamiyat qurilayotgan har qanday mamlakatda diniy jarayonlar evolyutsiyasini o'zibo'larchilikka tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ushbu mulohaza, ayniqsa, o'zlikka qaytishning qo'sh qanotini tashkil etuvchi milliylik va diniylik o'rtasidagi chegarani aniqlash baqoyat mushkul bo'lgan musulmon jamiyatlari uchun dolzarbdir.

Dunyoviy davvlat va jamiyat eng avvvalo, qonun ustuvorligini taqozo etadi. *“qonun – barcha uchun barobar”* degan demokratik tamoyil, shubhasiz, diniy jarayonlarga ham taalluqlidir. Ijtimoiy-iqtisodiy va ma'navviy-ma'rifiy hayotning boshqa har qanday sohasi kabi diniy jarayonlar ham faqat qonun belgilab qo'yilgan mezonlarga muvofiq ravvishda rivojlanishga haqlidir. Ifodali qilib aytganda, qonun barcha boshqa sohalarni me'yorga solib turgani kabi diniy vaziyat evolyutsiyasi ham, hech qanday chekinishlarsiz, unga bo'ysunishga majbur. Bu ish demokratiyaning asosiy tamoyillaridan bo'lgan vijdon erkinligi, xususan, e'tiqod erkinligini chegaralash hisobiga qilinmaydi, albatta. Aksincha, azal-azaldan demokratik jamiyatning bosh mezoni bo'lib kelgan qonun ustuvorligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

“Diniy vaziyat evolyutsiyasini boshqarish” haqidagi tezis, eng avvvalo, dunyoviy-ma'rifiy davvlat va jamiyat qurilishi jarayonida diniy omilga ajratilgan konstitutsiyavviy o'rinni qonuniy vositalar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Xuddi shu asosda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining *71-moddasida* diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan.

O'zbekiston davvlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ana shu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki dunyoviy-ma'rifiy davvlatda diniy e'tiqodi

va dunyoqarashidan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi.

Dunyoviylik tuyg'ulari alohida shaxs va ijtimoiy institutlar darajasida namoyon bo'lib boradi. Dunyoviylik demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan har qanday mamlakat hayotini tashkil etishning bosh mezonlaridan biri – vijdon erkinligi tamoyilining ustuvorligini kafolatlaydi.

Ma'lumki, diniy ong o'z-o'zidan o'zgarmaydi. Unga faol ta'sir ko'rsatib turuvchi omillar mavjud. Ularning eng ta'sirchani, shubhasiz, diniy muassasalardir. O'zbekiston misolida olib qaraladigan bo'lsa, mustaqillikning dastlabki yillarida ularning soni muntazam oshib bordi. Uzoq tarixiy davr davvomidan olib borilgan islomga qarshi siyosat doirasida mulohaza yuritilsa hamda XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillarining boshida mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat ko'zgusi orqali qaralsa, bu – tabiiy hol edi, deyish mumkin. Masalaning g'ayritabiiy tomoni shunda ediki, masjidlar sonining uzluksiz oshib borishi bilan bir vaqtda, musulmonlar diniy ongini radikallashtirish va siyosiy lashtirishga uringan kuchlar ham faollashib bordi. Masjidlarning barkamol insonni tarbiyalashdek nozik masaladagi muhim tarbiyaviy rolini inkor etmagan va unga zarracha soya tashlamagan holda, shuni qayd etish mumkinki, ularning ayrimlari, afsuski, O'zbekistonda siyosiy islomning shakllanishi va rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi. XX asrning 90-yillari boshida Rossiyada tuzilgan *“Islom uyg'onish partiyasi”* filialini O'zbekistonda ochish, *“Turkiston islom partiyasi”*ga asos solishga qaratilgan urinishlar mazkur kuchlarning o'z saflarini mustahkamlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli harakatlari sifatida yuzaga keldi. Namangan va Qo'qonda tuzilgan *“Adolat”*, *“Islom lashkarlari”*, *“Odamiylik va insoniylik”* kabi harbiylashgan tashkilotlar jinoyatchilikka qarshi kurashda davvlat organlariga yordam berish niqobi ostida huquq-tartibot tashkilotlarining ayrim vazifalarini o'z zimmasiga ola boshlagani ham islomning tez sur'at bilan siyosiy lashtirish borayotganidan dalolat berar edi.

Har qanday masjidda diniy qadriyatlarining targ'ib etilishi tabiiy hol. Aslida, masjidlarning asosiy vazifalaridan biri ham shudir. Demak, ular diniy ongni rivojlantirish va uning evolyutsiyasi yo'nalishini belgilovchi eng muhim mexanizmdir. Tabiiyki, masjidlarda ushbu targ'ibot sof diniy qobiqqa o'ralgan tarzda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, turli masjidlarda va'z qiluvchi imomlarning savviyasi ham, dunyoqarashi ham turlichadir.

O'zbekiston dunyoviy davvlat bo'lib, mamlaktimizda din davvlatdan alohida bo'lib, bu haqda mamlakatimiz Konstitutsiyasining 75-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davvlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davvlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi». Bu g'oya «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unda ham dinning davvlatdan ajratilganligi, hech bir dinga

yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Bu esa mamlakatimizda davvlatning diniy ishlarga, dinning esa davvlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno, albatta). Aralashmasligini anglatadi. Buning zamirida davvlat tomonidan turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va dinga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, shu kabi tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashishi, ular o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik va keskinliklarning oldini olishi, diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, diniy tashkilotlar zimmasiga davvlat o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamasligi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmasligi kabilar yotadi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligini ifodasi sifatda davvlatning din va diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatda quyidagi pritsiplarga amal qilishini e'lon qildi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'yilmaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, xulosa qilish mumkinki, biz yuqorida tahlil etgan davvlat va din o'rtasidagi munosabatning uch modeli davvlat va din o'rtasidagi munosabatning turli-tuman qirralarini jihatlarini va xossalarini to'laligicha qamrab ololmaydi. Davvlat va din o'rtasidagi munosabatning bir modelida boshqa model elementlari ham uchrab qolishi mumkin. Shu jihatlarini

hisobga olgan holda aytish mumkinki, davvlat va din o'rtasidagi munosabatning qaysi modelda bo'lishi shu davvlatning taraqqiyoti, undagi aholining mentaliteti, dinning xususiyati, mamlakatdagi demokratik vaziyat, inson huquqlarining ta'minlanganligi, xalqaro ahvol, jamiyatning ongi kabi omillar ta'sir etishi shubhasizdir.

NAZORAT UCUN SAVOLLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy e'tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?

2. Diniy e'tiqod erkinligi haqida Konstitutsiyaning qaysi moddasida so'z yuritiladi?
3. «Diniy tashkilotlar» deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Diniy tashkilotlarga kimlar a'zo bo'la oladi?
5. Diniy tashkilotlarni tashkil etish, davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki faoliyatini tugatish O'zbekiston Respublikasining qaysi qonun hujjatiga asosan olib boriladi?
6. Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo'llaydi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

AXBOROT MANBALARI:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari

| Maksimal ball | Nazorat qilinadigan va baholanadigan ish turlari | Baholashda e'tibor qaratiladigan jihatlar |
|----------------------|--|--|
| 5 | Mavzu bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi va darsdagi faollik | Asosiy tushunchalar, ta'riflar, mohiyatini tushunish, ijodiy fikrlay olish, bilimlarni amalda qo'llay olish |
| 5 | Uyga berilgan topshiriqlarni bajarish sifati | Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, masalalarni hal qilishga ijodiy yondashish, tushuntirib bera olish |
| 5 | Nazorat ishlarini bajarish sifati | Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, yechimni asoslay olish |
| 5 | Mustaqil topshiriqlarni bajarilish sifati | Berilgan topshiriqni to'g'ri va to'liq bajarish, mustaqil mulohaza yurita olish, bilimlarni amalda qo'llay olish, masalaga ijodiy yondashish, mohiyatini tushunish va aytib bera olish |

